



UDK: 821.512.133

**Husniddin ESHONQULOV,**  
*BuxDU dotsenti, filologiya fanlari doktori*  
*E-mail: husniddin.eshonqulov72@mail.ru*  
**Azimjon HAMIDOV,**  
*BuxDU o'qituvchisi*  
*E-mail: hamidov\_azimjon@mail.ru*

*SamDU professori, filologiya fanlari doktori M.Q.Muhiddinov tahriri ostida*

#### ALISHER NAVOIY G'AZALIYOTIDA MUALLIF TAHRIRI: SHAKL VA MAZMUN MUKAMMALLASHUVI

Аннотация

Maqolada Alisher Navoiy g'azallarida muallif tahriri masalasi "G'aroyib us-sig'ar" "Debocha"si misolida o'rganilib, shoirning mustaqil baytlardan tuzilgan g'azallari ustida olib borgan tahriri xususida so'z yuritiladi. Vazn, qofiya, radif singari poetik unsurlar bunday nazm namunalari kompozitsion butunligini ta'minlashga xizmat qiluvchi g'azallar tahririda ulug' shoir baytlarning o'zaro almashishiga alohida e'tibor qaratgani tahlillar asosida dalillanadi. Muallif tahriri natijasida g'azal mazmunining badiiy mukammallashuviga erishilgani ilmiy izohlanarkan, parokanda g'azallardagi baytlarning mustaqil ma'no ifodalashi nisbiy mohiyat kasb etishi xususida mulofaza yuritiladi. Ulardagi mazmuniy mustaqillik g'azal baytlarining muayyan guruhlarga ajralishida ham namoyon bo'lishi ko'rsatib o'tiladi. An'anaga muvofiq shoir taxallusining maqtada qo'llanilishi tahrir jarayonida Alisher Navoiy e'tibor qilgan muhim poetik hodisa ekanligi dalillanadi. Ayni jihatlariga ko'ra ulug' shoirning tahrirda g'azalning shakl va mazmuniy mukammallashuviga erishgani asoslanadi.

**Kallit so'zlar:** Mustaqil baytlardan tuzilgan g'azal, bayt, shakl, mazmun, "Xazoyin ul maoniy", "Debocha", maqta, "G'aroyib us sig'ar", "Badoyi' ul bidoya".

#### СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФОРМЫ И СОДЕРЖАНИЯ АВТОРСКИХ СТРОК В ГАЗЕЛЯХ АЛИШЕРА НАВАИ

Аннотация

В статье говорится о вопросах авторских строк, использованных в газелях на примере поправок газели "Гаройиб ус-сигар" как "Дебоcha" ("Начало") творческого пути в газелях Алишера Наваи. Размер, строка с пофторами слов, рифма и другие поэтические элементы послужившие как средства обеспечения композиционной целостности обеспечили редактированию и взаимосвязь газелей на основе глубокого анализа, что привлекло особое внимание автора как великого поэта. В результате авторского анализа достигнуто совершенство произведений (газелей) автора содержание и философское значение, как результат художественного совершенства обоснованное научным толкованием. А также ведется размышление о самостоятельном осмыслении каждой строки разъединенных газелей как единое целое. Указывается на общность по смысловому значению и разделение на группы разъединенных газелей. Доказывается необходимость поэтических псевдонимов Алишера Наваи как традиционные применения таких явлений в процессе анализа. Обосновывается совершенство поэтическое мастерство в авторской редакции великого поэта.

**Ключевые слова:** Газели созданные отдельными строками, строка, форма, смысл и значение, "Хазоин ул маони", "Дебоcha" ("Начало"), мақта (строка в конце газели), "Гаройиб ус-сигар", "Бадойи ул-бидоя".

#### AUTHOR'S EDITING IN ALISHER NAVOI'S GHAZALS: PERFECTION OF FORM AND CONTENT

Annotation

The article examines the issue of author's editing in Alisher Navoi's ghazals on the example of "G'aroyib us-sig'ar" ("Wonders of childhood") "Debocha" ("Inception") and discusses the poet's editing of ghazals (one type of poetry) composed of independent verses. The analysis proves that the poetic elements such as weight, rhyme, radif pay special attention to the interchange of verses of the great poet in the editing of poems, which serve to ensure the compositional integrity of such poems. While the author explains that the artistic perfection of the ghazal content has been scientifically refined, it is argued that the independent meaning of the bytes (a two-line part of ghazals) in the scattered ghazals is of relative importance. It is pointed out that the semantic independence in them is also reflected in the division of ghazal verses into certain groups. Traditionally, the use of the poet's nickname in praise is an important poetic event that Alisher Navoi noticed during the editing process. In this sense, it is based on the fact that the great poet perfected the form and content of the poem in the edit.

**Keywords:** Ghazal consisting of independent bytes, byte, form, content, "Khazayn ul maoniy" ("Treasure of thoughts"), "Debocha" ("Inception"), acclaim, "G'aroyib us-sig'ar" ("Wonders of childhood"), "Badoyi ul-bidoya" ("New inception").

**Kiritish.** Alisher Navoiy "G'aroyib us-sig'ar" "Debocha"sida umri davomida yozgan she'rlarini g'oyaviy-badiiy jihatdan "takmil rishtasig'a" [2, 16] tortilganini, ularni jiddiy tahrirdan o'tkazib, "Xazoyin ul-ma'oniyy"ni tartib berganini, buning uchun ellik-olmishtacha, ba'zan yuztacha qayta ko'rib chiqilgan g'azallarining sulton Husayn Boyqaro nazaridan o'tkazib borganini e'tirof etadi [2, 16-17]. Shoir g'azallarining dastlabki devonlardagi matni bilan "Xazoyin ul-

maoniy"dagi matni qiyoslanganda, ulaarning o'nlab namunalari matnida baytlarning o'zaro o'rin almashganining kuzatilishi muallif tahrirdan darak beradi. "Debocha"dagi ishoralar fikrimizni dalillaydi. Ulug' shoirning g'azallari bog'liq tahrirlarini ilmiy o'rganish muallif dunyoqarashi va shoirlik mahorati takomilini muayyanlashtirish imkonini hosil qiladi.



**Mavzuga old adabiyotlarning tahlili.** G'iyosiddin Xondamir "Makorim ul-axloq"da Alisher Navoiyning davlat ishlaridan aksariyat bo'sh vaqtlarida o'zi yozgan va xattotlar tomonidan ko'chirilgan asarlarni tahrir qilish bilan mashg'ul bo'lganini ta'kidlaydi [10]. Ulug' shoirming "Ilk devon", "Badoyi' ul-bidoya", "Navodir un-nihoya" devonlaridan o'rin olgan lirik asarlari "Xazoyin ul-maoniy" tartib berilayotganda muallifning jiddiy tahriridan o'tkazilgani A.Hayitmetov [11], N.Jumaxo'ja [4], A.Erkinovlar [7] tadqiqotlarida ham ko'rsatib o'tiladi. Bunday tahrirlarda g'azallarning kompozitsion mukammalligi ham nazarda tutilganligi ahamiyatga molikdir. Alisher Navoiy tadjir – fikrni baytlararo ketma-ket rivojlantirib borish uslubida g'azallar ijod qilishga ko'proq mayl ko'rsatsa-da [6], oshiqona g'azal tarkibida "biror-ikkiror nasihatoro va ma'vizatosa bayt" [1, 23] qo'shishni ham ma'qul ko'radi. Tabiiyki, bunday adabiy niyatni amalga oshirishda ulug' shoirga tuzilishiga ko'ra parokanda – mustaqil baytlardan tarkib topgan g'azallar ijod qilish qo'l keladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** G'azalning mustaqil baytlardan tarkib topishi uni tahrirlashda baytlarning g'azal matnidagi o'rini almashtirish imkonini beradi. Alisher Navoiy bunday imkoniyatdan har bir g'azalning badiiy tuzilishiga ko'ra shunday janrdagi she'rlar bilan umumiy jihatlarini bo'lganidek, uning o'ziga xos badiiy qurilishi ham mavjudligini [3; 8] unutmagan holda ijodiy foydalangan. Ulug' shoirming ushbu tahrirlarini qiyosiy-tarixiy, sharhlash, tavsiflash va tasniflash metodlari bilan ilmiy o'rganish jarayonida g'azal tahririda Alisher Navoiyning o'ziga xos adabiy-estetik qarashlari mavjudligiga amin bo'ldik.

**Tahlil va natijalar.** Alisher Navoiy "Badoyi' ul-bidoya"dagi "Vah, ne qotildur, kelur oyini zulm-u kin solib...", [1, 78] "Topqali xokiy tanimg'a novaki ishqing kushod" [1, 117], "So'zi hajring ichra har dam za'flig' jismim yonib" [1, 83], "Ne navo soz aylagay bulbul gulistondin judo" [1, 67], "Chamanda sarv yo gul chun sabodin tebranur nogah" [1, 518-519], "Ul sarv uzori guli serobdek erish" [1, 244-245], "Kunduz ul xurshidi raxshondin ko'zumda yosh erur" [1, 176], "Qatlima tiyg' o'lgalikim charx ishi ozordur" [1, 146], "Yor ila bir xilvat istarmenki, ag'yor o'lmag'ay" [1, 563], "Necha kilki taxayyul birla bir surat nigor aylay" [1, 537] satri bilan boshlanuvchi g'azallar matnidagi ikki baytning o'rini almashtirish bilan shakl va ma'noda mukammallashuviga erishadi. To'qqiz baytli "Chamanda sarv yo gul chun sabodin tebranur nogah" misrasi bilan boshlanuvchi g'azal misolida fikrimizni muayyanlashtirishga harakat qilamiz:

Chamanda sarv yo gul chun sabodin tebranur nogah,  
Sog'inib sarvi gulro'yum kelur, afg'on chekarmen, vah,  
Boshimni olmag'aymen sajdaiy shukr aylayu yerdin, Agar  
sarvi xirononimg'a bo'lsam soyadek hamrah O'zum ham  
ermon o'z holimdin ogah to ani ko'rdum, Yo'q ulkim, ermas  
ahvolimdin ul nomehribon ogah. Yuz olmoq sarv birla gul  
ayog'idinki, vah, yo'qtur Aning qaddu yuziga bog' aro bu  
ikkidin ashbah. Zanoxdondingda xay ermaski, obi  
zindagoniydur, Ki hayvon chashmasining ostida voqi'dur ul  
chah.

Yuzung vasfini yuz tah safhag'a yozsam tamom  
o'lmas, Ki bo'lg'ay safhayi xurshidcha ul safhadin har tah [1,  
518-519].

Ushbu to'qqiz baytli g'azal "Badoyi ul bidoya" devoni va "Xazoyin ul maoniy" kuliyyotining "G'aroyib us-sig'ar" devonidan o'rin olgan. G'azalning dastlabki devondagi matnining to'rtinchi va beshinchi baytlari "G'aroyib us-sig'ar" devonida tahrir natijasida o'zaro o'rin almashgan. Nazarimizda, Alisher Navoiy ushbu g'azalni shakl va mazmun jihatidan badiiy takomillashtirish maqsadida tahrir jarayonida undagi baytlar o'rini atayin o'zgartirgan ko'rinadi. G'azalning to'rtinchi, beshinchi va oltinchi baytlariga diqqat

qaratadigan bo'lsak, to'rtinchi baytda ma'shuqaning yuz go'zalligi, beshinchi baytda suyukli yorning zanaxdoni, ya'ni iyak qismi badiiy talqin etilib, oltinchi baytda esa fikr yana yorning yuziga qaratiladi. Ko'rinib turibdiki, ulug' shoir g'azal ma'nosiga e'tibor qaratib baytlarning ma'no jihatdan ham mukammalligini ta'minlashga alohida diqqat qaratgan. Yuz haqidagi fikrlarning davomiyligini ta'minlash maqsadida g'azalning to'rtinchi va beshinchi baytlarini o'zaro almashtirgan. G'azal matlasida chamanda sarv yoki gulning sabodin nogah tebranishi ta'siridan lirik qahramon "sarvi gulro'" – ma'shuqasining kelishini sog'inib afg'on chekishi, ikkinchi-uchinchi baytlarda esa lirik qahramon o'sha sarvi xirononimga soyadek hamroh bo'lsa, boshini yerdan olmay sajda-yu shukr qilishi, to sevgilisini ko'rgunga qadar o'z holidan uni ogoh etmasligi-yu, "ul nomehribon"ning oshiq ahvolidan ogoh emasligi, beparvoligi badiiy tasvirlangan.

Tahrirlangan matnga ko'ra, g'azalning beshinchi-oltinchi baytlarida ma'shuqaning qadi-yu yuziga bog'aro sarv va guldan bo'lak o'xshash narsa bo'lmagani uchun oshiq shularning oyog'idan yuzini olmasligi, ya'ni ularga sajda qilib turishi, yor yuzining vasfini yuzlab sahifalarga yozsa, tugamasligi-yu, faqatgina bu sahifalarning qatma-qatligi quyosh sahifasicha bo'lishi mubolag'aviy tasvirlangan. Shundan so'ng butun-bo'lak munosabatlariga ko'ra, zanaxdon – iyakdagi kulgich tasviriga she'rxon diqqati tortilgan. Unda ma'shuqa kulgichidagi hayoning samarasi bo'lgan xay – ter tiriklik suvi sifatida vasf etilib, uning chashmasi ostida shundoq chohning borligi ma'shuqaning kulgichidagi terga kutilmagan chiroyli o'xshatish bilan badiiy dalillangan. Ko'rinadiki, g'azaldagi badiiy manzaralarning mustaqilligi baytlarning o'zaro guruhlanishi samarasi sifatida namoyon bo'lgan. Ulug' shoir muayyan badiiy manzara tasviriga birlashgan baytlar ketma-ketligini tizimga solib, undagi mazmuni tadjiriy rivojlantirgan.

Alisher Navoiy xuddi shunday tahrir usulini g'azal matnidagi bir necha baytlar tartibining o'zgartirilish orqali ham amalga oshiradi. "Badoyi' ul-bidoya"dagi "Ey, hamd o'lub mahol fasohat bila sanga" [1, 29-30], "Mendin ul chobukning, ey payki sabo, maydonin o'p" [1, 87], "Necha kilki taxayyul birla bir surat nigor aylay" [1, 537] satri bilan boshlanuvchi g'azallar ana shunday tahrirlarga sabab bo'lgan ko'rinadi. Dastlab "Badoyi' ul-bidoya", keyinchalik esa "G'aroyib us-sig'ar"dan o'rin olgan "Ey, hamd o'lub mahol fasohat bila sanga" [1, 29-30] misrasi bilan boshlanuvchi g'azal to'qqiz baytli bu g'azalning matni dastlab quyidagi ko'rinishda namoyon bo'lgan:

Ey, hamd o'lub mahol fasohat bila sanga,  
Andoqki, qurbi taqvi-yu toat bila sanga.  
Topmoq ajib fikr-u taxayyul bila seni,  
Etmak xayol aql-u farosat bila sanga.  
Chun koinot zubdasi ojiz ko'rub o'zin,  
Hamd eta olmas oncha fasohat bila sanga.  
Izhori ajz bizdin adab tarkidur base,  
Yuz ming qusur-u nuqs-u kasofat bila sanga.  
Har tiyra ro'zgorki, vaslingg'a yo'l topib,  
Sendin etib charog'i hidoyat bila sanga.  
Lutfung rafiqim o'lmasa, ne hadki, etkamen  
Boshtin-ayoq gunoh-u zalolat bila sanga.  
Chun sendin o'zga yo'q panahim, qochmayin netay  
Jurm-u gunahdin oh-u nadomat bila sanga?  
Isyoni ko'p Navoiyning-u yo'q uyotikim,  
Istar etishsa muncha xijolat bila sanga.  
Lutf aylagilki, mumkin emas qilmasang qabul,  
Etmak tamomi umr ibodat bila sanga [1, 29-30].

G'azal tuzilishiga ko'ra parokanda bo'lib, vazn, qofiya va radif vositasida undagi turli adabiy manzaralar bir butunlik hosil qilishi kuzatiladi. Vazn, qofiya va radifning turli adabiy lavhalaridagi g'azal baytlarining erkin bog'lash poetik vazifani bajarishi bu kabi g'azallarda baytlarning o'rni almasha ham,



undagi ma'noning sezilarli darajada o'zgarib ketishiga sabab bo'lmaydi. Alisher Navoiy "Xazoyin ul-maoniy" devoni tarkibidagi birinchi devon "G'aroyib us-sig'ar" ni tartib berishda yuqoridagi hamd g'azalning muayyan darajada tahrir qilganligi undagi ayrim so'zlarning o'zgartirilishi va baytlar tartibining o'zgarishida kuzatiladi. Fikrimizni g'azalning umumiy mazmuniga e'tibor qaratish asosida aniqlashtirishga harakat qilamiz.

G'azalning matlasida ulug' shoir Allohga murojaat qilib, taqvo va toat ibodati bilan Allohga yaqinlik hosil qilib, unga hamd (maqto'v) aytishga o'zlik qilishini bayon etadi. Shoir bu bilan barcha toat-u ibodati Alloh uchunligini ma'lum qilib, chiroyli so'zlar aytish bilan Allohni maqtashdan ham o'zining o'zligiga diqqat qaratadi. Shu o'rinda ijodkor inson faqat boshi sajdaga yetganidagina me'rojga chiqqandek bo'lishi, Rabbisiga yaqin turib, u bilan suhbat qura olishiga ishora qiladi. Keyingi baytda ijodkor Alloh taolaga fikr-u taxayyul (xayolga keltirish), aql-u farosatga tayanib, xayol surish bilan yetish ajablanarli hol ekanligini mubolag'aviy tasvirlaydi. G'azalning ushbu ikkinchi baytdagi "Etmak xayol ..." birikmasi "G'aroyib us-sig'ar" da "Etmak mahol" bilan almashirilgan. Ya'ni Alloh taolaga fikr-u taxayyul va aql-u farosat bilan yetish qiyin ekanligi baytda o'z ifodasini topgan. Ehtimol, bunda kotibning xatosi tuzatilgandir. G'azalni o'qish davomida ijodkor ilohiy kitob "Baqara" surasidagi "Albatta, biz Allohning (bandalarimiz) va albatta, biz u zotga qaytuvchimiz" [9] oyati karimasiga ishora qilganini ham ko'rish mumkin. Ushbu g'azalda Alloh insonni ikki borliq - ko'z bilan ko'rinadigan moddiy va ko'z bilan ko'rinmaydigan ma'naviy borliq bilan yaratgani, ko'pincha insonning moddiy borlig'i ma'naviy borlig'idan ustun kelishi, shu payt insonning irodasi Haqni taniyolmay qolishi-yu, bu esa insonning qalb ko'zlarini berkilishiga olib kelishi, bunday illatning davosi esa faqat Allohga hamd ekani ijodkor tomonidan yuksak mahorat bilan ishoralarda badiiy tasvirlangan.

G'azalning uchinchi baytda hattoki komillikka erishgan kishi ham shuncha aql-zakovati bilan Allohga hamd aytishda o'z ekanligi to'g'risida so'z yuritiladi. Keyingi baytda ijodkor o'zining o'zligini badiiy ifodalab, unga bu holat odat ekani va bundan qutila olmasligini ayta turib, yuzminglab kamchiliklari bilan Allohga intilayotganini bayon qiladi. Beshinchi baytda, har kim sening huzuringa yo'l topsa, unga hidoyat nuri sendan yetgan bo'ladi va senga intiladi deyiladi. Oltinchi baytda ijodkor o'z holidan shikoyat qilib, boshdan-oyog' gunohga botgani bois unga Alloh taolodan lutf yetmasa ham ajablanarlimasligini aytib iztirob chekadi. Yettinchi baytda Allohdan boshqa iloh yo'qligini e'tirof etib, oh va nadomatlari bilan unga talpingani o'z ifodasini topadi. Keyingi baytda ijodkor o'zining isyonkor ekanligini malomatiylik uslubida badiiy ifodalab, shuncha kamchilik va nuqsonlari bilan Yaratganga intilayotganini bayon etgani kuzatiladi. G'azalning so'nggi baytda esa yana Allohga yuzlanib, lirik qahramon undan marhamat qilishini so'raydi. Negaki, Alloh lutf qilmasa, butun umr bo'yi Unga ibodat qilib ham Unga yetib bo'lmaydi.

Ko'rinadiki, g'azalda shoirning taxallusi maqtada keltirilmagan, balki sakkizinchi baytda uning mavjudligi kuzatiladi. An'anaga ko'ra, taxallusning maqtada keltirilishi g'azalning shakliy va mazmuniy mukammallashuviga omil bo'ladi. Alisher Navoiy tahrir jarayonida masalaning bu jihatini e'tiborga olgan ko'rinadi. Shu bois "G'aroyib us-sig'ar" devonida yuqoridagi hamd g'azalning yettichi bayti sakkizinchi, sakkizinchi bayti to'qqizinchi va to'qqizinchi bayti esa yettinchi bayt sifatida g'azaldan o'rin oladi. "Badoyi

ul-bidoya"dagi ushbu g'azal to'qqizinchi baytining "G'aroyib us-sig'ar"da yettinchi bayt sifatida qo'llanilishi uning oltinchi bayt mazmuni bilan o'zaro butunlik hosil qilishini ta'minlagan:

Lutfung rafiqim o'lmasa, ne hadki, etkamen

Boshtin-ayoq gunoh-u zalolat bila sanga.

Lutf aylagilki, mumkin emas qilmasang qabul,

Etmak tamomi umr ibodat bilan sanga [2, 28].

Oltinchi baytda Alloh taoloning lutfi lirik qahramonning rafiqi - do'sti bo'lmasa, boshdan-oyog', ya'ni tamomila gunohga botgani holda Unga yetish imkonsiz ekanligi badiiy tasvirlangan. Keyingi baytning "Lutf aylagilki" birikmasi bilan boshlanishi esa g'azaldagi ta'kidni kuchaytirgan. Shoir Yaratganga munajot qilarkan, Undan lutf qilishini o'tinib so'rash bilan baytlardagi mazmuniy bog'liqlikni ta'minlashga erishgan. Ko'rinadiki, bunda adabiy fikrning tadjriy rivojlantirilgani kuzatiladi. Parokanda g'azallarga xos mazmunning vazn, qofiya va radif bilangina bog'liqligi haqidagi qarashning nisbiy mohiyat kasb etishi ayonlashib qoladi. G'azaldagi baytlarning mustaqil ma'no anglatishining har bir baytda namoyon bo'lishi bilan bir qatorda ayrim g'azallarda bunday mustaqillik baytlar guruhi holida bo'lishi ham nazarga tashlanadi. G'azalning maqta' va undan oldingi baytda ham o'zaro ajralmas mazmuniy birlik yuzaga kelgani e'tiborni ortadi:

Chun sendin o'zga yo'q panahim qochmayin netay

Jurm-u gunahdin oh-u nadomat bilan sanga.

Isyoni ko'p Navoiyningu yo'q uyotikim,

Istar etishsa muncha xijolat bilan sanga [2, 28].

Sakkizinchi baytda lirik qahramonning gunohlari ko'pligidan iztirob chekayotganini badiiy ifodaladi. U Parvardigori olamning lutfiga musharraf bo'lishdan o'zga panohi bo'lmaganini teran anglagani bois bu qadar ko'p gunohlardan oh-u nadomat chekib qochmasdan bo'lak chorasi yo'qligini izhor qiladi. Maqtada esa shoir, taxallusini qo'llab, o'z qilmishidan uyalmaganini malomat qiladi, isyonkorligini bila turib, xijolatli holga tushganligiga qaramay Allohga yetishni orzu qilganini badiiy ifodalaydi. Maqtaning rajo - umidvorlik [5] maqomidagi solikning holi bilan nihoyalanishi undagi o'ziga xos ehtirosning kuchayishiga, ayni choqda shoir taxallusining maqtada qo'llanishi g'azalga shakliy va mazmuniy jihatdan mukammallikning hosil qilinishiga omil bo'ladi. Bu hol ulug' shoirning nihoyatda talabchan, sinchkov va e'tiborli ekanligining bir ko'rinishi sifatida namoyon bo'lgan.

**Xulosa va takliflar.** "Badoyi ul-bidoya" dagi o'nta g'azalning ikki bayti, uch g'azalning ikkidani ortiq bayti tartibining o'zgartirilib, "Xazoyin ul-maoniy" devonlaridan o'rin olishi muallif tahririning yorqin namunasidir. Bunda ulug' shoir parokanda - mustaqil baytlardan tarkib topgan g'azallar matni ustida jiddiy tahrirlarni amalga oshirilgani kuzatiladi. Tahrir jarayonida ikki baytning o'zaro o'rin almashuvu ham g'azalning shakl va ma'no jihatdan muayyan darajada mukammallashuviga sabab bo'lgan. G'azalning bir necha baytlarining tahrir jarayonida o'rin almashuvu esa g'azaldagi mazmunning anchagina mukammallashuviga, maqtaning g'azalda o'z o'rnida qo'llanishiga bois bo'lgan. Mustaqil baytlardan tuzilgan g'azallardagi bir necha adabiy manzaraning muayyan baytlar guruhida tasvirlanishi, - bunda ularning matnda ketma-ket joylashishi guruhlarni hosil qilishi nazarda tutiladi, - ularda adabiy fikrning qisman bo'lsa-da, tadjriy rivojlantirilishiga zamin yaratgan. Ulug' shoir masalaning ayni jihatiga tahrirda alohida e'tibor qaratgan.

#### ADABIYOTLAR

1. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 1 том. Т.: "Фан", 1987.
2. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 3 том. Т.: "Фан", 1988.

3. Исҳоқов Ё. Навоийнинг илк лирикаси. – Т.: “Фан”, 1965. Б. 54-67
4. Жумахўжа Н. Сатрлар силсиласидаги сеҳр. – Т.: “Ўқитувчи”, 1996, Б.5-6.
5. Комилов Н. Тасаввуф. Биринчи китоб. Тошкент: “Ўзувчи”, 1996. Б.27.
6. Шайхзода М. Асарлар. Олти томлик, 4-том. – Тошкент, 1972. Б. 195-216.
7. Эркинов А. Матншуносликка кириш. Тошкент, 1997. Б. 9.
8. Eshonqulov N. Alisher Navoiy oshiqona g'azallarining badiiy qurilishiga oid o'ziga xosliklar//. Golden Scripts Oltin bitiglar. 2021. Vol.1. – B. 69-86.
9. Куръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима. Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. Тошкент: “Чўлпон”, 1992. Б. 23.
10. Ғиёсиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2015. Б. 65-66.
11. Ҳайитметов А. Навоий даҳоси. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1970, Б. 152-155.